

**TOSHKENT VAKSINA VA ZARDOBLAR ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.09.2022.Far.134.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**IMAMALIYEV BAXTIYOR ALISHEROVICH**

**ALLERGIYAGA QARSHI FITOKOMPOZITSIYALARNI  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA FARMAKO-  
TOKSIKOLOGIK BAHOLASH**

**14.00.17 – Farmakologiya va klinik farmakologiya  
15.00.01 – Dori texnologiyasi**

**FARMATSEVTIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

**Imamaliyev Baxtiyor Alishervich**

Allergiyaga qarshi fitokompozitsiyalarni texnologiyasini ishlab chiqish va  
farmako-toksikologik baholash.....3

**Имамалиев Бахтиёр Алишерович**

Разработка технологии и фармако-токсикологическая оценка  
противоаллергических фитокомпозиций.....27

**Imamaliyev Bakhtiyor Alisherovich**

Development of technology and pharmaco-toxicological assessment of antiallergic  
phytocompositions.....53

**E'lon kilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works .....57

**TOSHKENT VAKSINA VA ZARDOBLAR ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.09.2022.Far.134.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**IMAMALIYEV BAXTIYOR ALISHEROVICH**

**ALLERGIYAGA QARSHI FITOKOMPOZITSİYALARNI  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA FARMAKO-  
TOKSIKOLOGIK BAHOLASH**

**14.00.17 – Farmakologiya va klinik farmakologiya  
15.00.01 – Dori texnologiyasi**

**FARMATSEVTIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2026**

**Farmatsevtika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Far34 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent farmatsevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.toshvziti.uz](http://www.toshvziti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Rasmiy opponenlar:**

**Foziljonova Malika Shukhratjonovna**  
farmatsevtika fanlari doktori, dotsent

**Sirov Vladimir Nikolaevich**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Shakhmurova Gulnara Abdullaevna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.09.2022.Far.134.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «21» 01 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100084, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 37-uy. Tel.: (+99871) 234-77-67, 234-59-87, faks: (+99871) 234-59-87, e-mail: [tashrifs@umail.uz](mailto:tashrifs@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100084, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 37-uy. Tel.: (+99871) 234-77-67.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «08» 01 kuni tarqatildi.  
(2026 yil «08» 01 dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi)



**Qambarov X.J.**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash raisi, farm.f.d., professor.

**Eshmuratov Z.N.**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash kotibi, farm.f. PhD.

**Tuxtayev X.R.**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik Ilmiy seminar raisi, farm.f.d., professor.



## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi va avtoreferati)

**Dissertatsiya dolzarbligi rivojlanishi va zarurati.** Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bir qator mamlakatlarda aholining 25% gacha allergodermatozlar aziyat chekmoqda. Hozirgi vaqtda allergik dermatozlar bilan kasallanishning sezilarli darajada oshgani munosabati bilan mahalliy xomashyo asosida yuqori farmakologik faollikga ega samarali dori vositalarini yaratish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Butun dunyoda allergik dermatozlarni kompleks davolash va oldini olishda dorivor o'simliklardan foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy dorivor o'simlik xomashyosidan o'simlik aralashmalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish, ulardan biologik faol moddalar ajratib olish, olingan ekstraktlar sifatini baholash, farmakotoksikologik tadqiqotlar o'tkazish zarurati tug'iladi.

Respublikamizda bugungi kunda mahalliy farmatsevtika sanoatini innovatsion rivojlantirish, import o'rini bosuvchi dori vositalarni ishlab chiqish va ularni sifatini xalqaro normativ hujjatlariga mosligini aniqlashga alohida e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ilovasi 85-bandida «farmatsevtika sanoatini mahsulotlari hajmini 3 barobar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80% yetkazish»<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, suv-tuz hamda kislota-ishqor muvozanatini ta'minlovchi tayyor eritmalar nomenklaturasini kengaytirish, usulning ishchi parametrlarini sifatini tekshirishda Shuxart nazorat kartalari kabi samarali usullardan foydalanish, ushbu dori vositalarni xalqaro ICH (The International Conference on Harmonisation) talablariga muvofiq standartlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi «Aholini yuqori sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar» to'g'risidagi PQ-411-son qarorida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi «Yovvoyi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PQ-4670-son qarorida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi «Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PQ-4310-son qarorida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-yanvardagi «Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-13-sonli farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi «2022-2026-yillarda respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar» to'g'risidagi PF-55-son qarorida, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ hujjatlarda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni

texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarga sharhi<sup>2</sup>.** O'simlik materiallaridan olingan moddalar asosida dori vositalarini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan International Institute of Pharmaceutical Science & Research (Hindiston), Yonsei University, Seoul, (Koreya), Engineering Center of State Ministry of Education for Standardization of Chinese Medicine Processing va Huazhong University of Science and Technology (Xitoy Xalq Respublikasi), Community Health Sciences, University of London, Cranmer Terrace (Buyuk Britaniya); The Research Institute for Pharmaceutical Sciences in the University of Mississippi (AQSh), Faculty of Pharmaceutical Sciences in the University of Tokushima (Yaponiya), Volgograd davlat tibbiyot universiteti, Pyatigorsk tibbiyot va farmatsevtika instituti, Samara davlat tibbiyot universiteti, I.M.Sechenov nomidagi birinchi Moskva tibbiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Ukraina milliy farmatsevtika universiteti.

Dunyoda allergik kasalliklarni, jumladan, allergik dermatozlarni davolash uchun dori vositalarini yaratish, standartlashtirish va farmako-toksikologik baholash bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Chet ellik mualliflarning ilmiy ishlariga ko'ra, allergik dermatozlarning tashqi terapiyasi uchun antiallergik va an'anaviy vositalarni ishlab chiqishda bir qator yutuqlar mavjud. Ushbu ishlanmalarning ba'zilar uchun patentlar mavjud. Biroq, allergik dermatozlarni tashqi davolash uchun antiallergik vositalarning ahamiyati va kichik arsenalni ochiq savol bo'lib qolmoqda, chunki dorivor o'simlik materiallariga asoslangan mavjud ishlanmalar allergik dermatozlarni tashqi davolash muammosini har tomonlama hal qilmaydi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda allergodermatozlarning tashqi terapiyasida glikokortikosteroidlar (topik kortikosteroidlar), antigistaminlar, topik immunosuppressantlar, an'anaviy dorilar (neft, sink va boshqalar), namlovchi va oziqlantiruvchi vositalar, qichimaga qarshi vositalar, keratolitik moddalar va antiseptiklar keng qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tashqi terapiyada qo'llaniladigan dorilarning asosiy guruhi mahalliy steroidlar bo'lib, ular bir qator kamchiliklarga ega. Teri kasalliklarini davolashda fitoterapiya muhim o'rin tutadi, chunki teri kasalliklarining aksariyati surunkali hisoblanadi. Dorivor o'simliklar biologik faol moddalar ko'mpleksi bo'lib, bir qator terapevtik xususiyatlarga ega va davolashda muvaffaqiyatli yordamchi vosita bo'lib to'ldirishi mumkin va ba'zi hollarda allergodermatozlarning terapiyasini asosiy dorilar guruhlarining o'rnini bosadi. Ma'lumotlarga ko'ra (Skrupin Yu.K. 2005), bugungi kunda teri kasalliklari va allergodermatozlarni tashqi davolashda istiqbolli yo'nalish o'simlik preparatlari hisoblanadi, ayniqsa dorivor o'simliklarning biologik faol moddalari liposomalarga o'ralgan bo'lsa.

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [www.elsevier.com/locate/jethpharm](http://www.elsevier.com/locate/jethpharm) va [www.pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/manbalar/ma'lumotlariga](http://www.pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/manbalar/ma'lumotlariga) asoslanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor o'simliklar va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» va «Fiziologik faol moddalar va biologik faol qo'shimchalarning farmako-toksikologiyasini o'rganish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** allergodermatozlarni tashqi davolash uchun bo'lgan fitokompozitsiyalarni ishlab chiqish va farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning tarkibini ishlab chiqish;

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning dori shakllari (suyuq va quruq ekstrakt, gel, krem, surtma, dorivor yig'ma) texnologiyasini ishlab chiqish;

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning sifatini baholash va standartlashtirish;

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning barqarorligini o'rganish;

allergodermatozlarni tashqi davolash uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning bezararligini baholash (o'tkir toksiklik, nimo'tkir toksiklik, mahalliy ta'sirchanligi, allergiya chaqirish xususiyati);

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarni farmakologik o'rganish (umumiy farmakologik ta'sir, spetsifik faollik: antiallergik, antigistamin, yallig'lanishga qarshi va yarani davolash faoligi);

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarning ta'sir qilish mexanizmini o'rganish;

allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalarni biofarmatsevtik baholash;

allergodermatozlarni tashqi davolash uchun tavsiya etilgan fitokompozitsiyalar ko'rinishidagi ishlanmalarni amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning ob'ektlari** ekzemani tashqi davolash uchun tavsiya etilgan suyuq ekstrakt va dorivor yig'ma ko'rinishidagi fitokompozitsiya («Fitoekzemaderm» shartli nomi bilan) va atopik dermatitni tashqi davolash uchun tavsiya etilgan suyuq va quruq ekstrakt, gel, krem, surtma va dorivor yig'ma ko'rinishidagi fitokompozitsiya («Fitoallergoderm» shartli nomi bilan).

**Tadqiqotning predmeti** preparatning tarkibi, texnologiyasi, fizik-kimyoviy parametrlari, standartlashtirish, barqarorligi, saqlash sharoitlari va saqlash muddati, o'tkir, nimo'tkir toksikligi, umumiy farmakologik faolligi, mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati, antiallergik, antigistamin, yallig'lanishga qarshi va yaralarni davolash faolligi, biokiraolishligi, biofarmatsevtik parametrlari.

**Tadqiqotning usullari.** Fitokompleks tarkibini ishlab chiqish uchun aqliy modellashtirish va ranjorovka usullari qo'llanilgan, keyinchalik faol moddalarning sinergizmini eksperimental tasdiqlash va ixtirochilik tamoyillari ham qo'llanilgan. Suyuq ekstraktlar texnologiyasini ishlab chiqishda bir qator modifikatsiyalar bilan matseratsiya usuli qo'llanildi. Quruq ekstrakt, gel, krem, malham va dorivor yig'ma texnologiyasini ishlab chiqish umumiy qabul qilingan tamoyillar asosida, ya'ni empirik tarzda ixtirochilik yondashuvidan foydalangan holda amalga oshirildi. Sifatni baholash, barqarorlik va standartlashtirish uchun umumiy qabul qilingan va farmakopeya usullaridan foydalanilgan. Farmako-toksikologik ko'rsatkichlarni baholash umumiy qabul qilingan usullar asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ekzemani tashqi davolash uchun mahalliy dorivor o'simlik xom ashyosi asosida suyuq ekstrakt va dorivor yig'ma shaklidagi fitokompozisiyaning tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi;

atopik dermatitni tashqi davolash uchun mahalliy dorivor o'simlik xomashyosi asosida quruq ekstrakt, gel, krem, surtma va dorivor yig'malarni shaklidagi fitokompozisiyaning tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi;

turli omillar ta'sirini o'rganish orqali ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstrakt texnologiyasi ishlab chiqildi, ishlab chiqilgan texnologiya barqarorlikka ta'sir qiluvchi balast moddalarining ajralishini kamaytiradigan, faol moddalarning ajralishini saqlagan holda va kremniyorganik moddalarining yuqori ajralishiga ega;

ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstrakti, shuningdek, atopik dermatitni tashqi davolash uchun quruq ekstrakti, gel, krem va surtma sifat ko'rsatkichlari aniqlandi;

ekzemani tashqi davolash uchun tavsiya etilgan suyuq ekstraktning bezararligi isbotlangan (o'tkir va nimo'tkir toksikligi, mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati, umumiy farmakologik faollik);

ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstraktining antiallergik, antigistamin, yallig'lanishga qarshi faolligi sintetik preparatlardan (topik glyukokortikosteroidlar, antigistamin vositalar va an'anaviy preparatlar) kam emasligi va ba'zi hollarda hatto ulardan oshib ketishi isbotlangan;

ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstrakti va atopik dermatitni tashqi davolash uchun suyuq ekstrakti etalon preparatlaridan kam bo'lmagan yarani davolovchi faollikka ega ekanligi isbotlangan;

ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstrakti va atopik dermatitni tashqi davolash uchun suyuq ekstraktning ta'sir qilish mexanizmi o'rganildi, uning mohiyati to'g'ridan-to'g'ri antigistamin (gistaminni blokirovka qiluvchi) ta'sirida va terining morfologiyasiga tiklovchi ta'sir ko'rsatishida;

ekzemani tashqi davolash uchun suyuq ekstrakti va atopik dermatitni tashqi davolash uchun suyuq ekstraktning barqarorligi o'rganildi va farmako-toksikologik barqarorlik ba'zi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarda og'ishlardan keyin ham saqlanib turishi aniqlandi;

ekzemani tashqi davolash uchun dorivor yig'maning, shuningdek, atopik dermatitni tashqi davolash uchun quruq ekstrakt, gel, krem, surtma va dorivor

yigʻmaning bezararligi aniqlangan (oʻtkir toksiklik, mahalliy taʼsirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati);

ekzemani tashqi davolash uchun dorivor yigʻmaning, shuningdek, atopik dermatitni tashqi davolash uchun quruq ekstrakt, gel, krem, surtma va dorivor yigʻmaning bezararligi aniqlangan (oʻtkir toksiklik, mahalliy taʼsirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati);

ekzemani tashqi davolash uchun dorivor yigʻmaning va atopik dermatitni tashqi davolash uchun dorivor yigʻmaning antiallergik faolligi isbotlangan va antiallergik faolligi sintetik preparatlardan (topik glyukokortikosteroidlar, antigistamin vositalar va anʼanaviy preparatlar) kam emasligi ham;

atopik dermatitni tashqi davolash uchun quruq ekstrakt, gel, krem va surtmaning antiallergik faolligi aniqlandi, antiallergik faolligi roʻyxatga olingan dori shaklidan ustunligi isbotlandi va har bir dorivor shakli uchun samarali dozali konsentratsiya oʻrnatildi;

atopik dermatitni tashqi davolash uchun quruq ekstrakt, gel, krem va surtmaning biokiraolishligi oʻrganilib, dori shakli va ishlab chiqarish texnologiyasining oʻzgarishi bilan biokiraolishligi koʻrsatkichlari oʻzgarishi aniqlandi;

yangi biofarmatsevtik qonuniyat aniqlandi, uning mohiyati shundaki, dori shakli va turli dori shakllarini olish texnologiyasidagi oʻzgarishlar farmakodinamik sinergizm tufayli farmakodinamikaga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir qiladi, farmakokinetikaga sezilarli taʼsir koʻrsatmagan holda.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

«Fitoeczemaderm» suyuq ekstrakt va dorivor yigʻma uchun klinik oldi tadqiqotlar boʻyicha yakuniy hisobotlar;

«Fitoallergoderm» quruq ekstrakt, gel, krem, surtma va dorivor yigʻma uchun klinik oldi tadqiqotlari boʻyicha yakuniy hisobotlar;

«Fitoeczemaderm» suyuq ekstrakti va dorivor yigʻma uchun tibbiyotda foydalanish boʻyicha yoʻriqnoma ishlab chiqildi, shuningdek, «Fitoallergoderm» quruq ekstrakti, gel, krem, surtma va dorivor yigʻma uchun tibbiyotda foydalanish boʻyicha yoʻriqnoma ishlab chiqildi;

«Fitoeczemaderm» suyuq ekstrakti, shuningdek, «Fitoallergoderm» quruq ekstrakti, gel, krem va surtma uchun normativ hujjatlar ishlab chiqilgan;

«Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti uchun normativ hujjat va tibbiyotda foydalanish boʻyicha yoʻriqnoma tasdiqlanib, roʻyxatdan oʻtganlik toʻgʻrisidagi guvohnomasi olindi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar amaldagi GLP mintaqaviy standarti – «Yaxshi laboratoriya amaliyoti», ISO 9001 talablariga muvofiq va «Eksperimental va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish boʻyicha Evropa konventsiyasi» ning barcha normalari va qoidalariga rioya qilgan holda oʻtkazildi. Shuningdek, farmako-toksikologik tadqiqotlar davomida kamida 10-14 kun karantindan oʻtgan sogʻlom hayvonlardan foydalanilgan. Barcha tadqiqotlar metrologik qiyoslashdan oʻtgan oʻlchov vositalari va attestatsiyadan oʻtgan uskunalarda oʻtkazildi. Tadqiqotlarda ishlatiladigan reaktivlar normativ hujjatlar (GOST, TS, DF va boshqalar) talablariga javob

bergan. Tadqiqot natijalari variatsion statistika usuli yordamida Styudent mezoni asosida qayta ishlandi va olingan o'lchovlarning xatosi ham baholandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, birinchi marta allergodermatozlarni davolash uchun tavsiya etilgan mahalliy dorivor o'simliklar asosidagi fitokompozitsiyalardan bo'lgan suyuq va quruq ekstrakti, gel, krem, surtma va dorivor yig'malar texnologiyalari ishlab chiqildi, ishlab chiqilgan preparatlar zararsiz va samaradorligi bo'yicha sintetik preparatlardan (topik glyukokortikosteroidlar, antigistamin vositalar va an'anaviy preparatlar) aslo qolishmaydi. Gel, krem, surtma shaklida esa samaradorligi buyicha sintetik preparatlardan ustuvor.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, fitokompozitsiyalardan suyuq va quruq ekstrakti, gel, krem va surtma uchun korxona farmakopeya maqolalari ishlab chiqildi, shuningdek, suyuq va quruq ekstrakti, gel, krem, surtma va dorivor yig'malarni tibbiyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar, shuningdek, dorivor yig'ma va suyuq ekstrakt tarkibi va texnologiyasiga ixtiroga patentlar olindi. Shuningdek, «Fitoallergoderm» suyuqlik ekstrakti uchun tasdiqlangan normativ hujjat va tibbiyotda ko'llanilishiga doir yo'riqnoma, ro'yxatdan o'tilgan to'g'risidagi guvohnomasi olindi. Bularning barchasi sanoat sharoitida turli dorivor shakllarda fitokompozitsiyalarni ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Allergodermatozlarni tashqi davolash uchun fitokompozitsiyalarni ishlab chiqish va farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganishda olingan ilmiy natijalarga asosanib:

ixtiroga patent IAP 06068, bu ekzemani davolash uchun ishlab chiqilgan fitoyig'maning sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish imkonini beradi;

ixtiroga patent IAP 06409, bu ekzemani davolash uchun ishlab chiqilgan suyuqlik ekstraktining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish imkonini beradi;

O'zbekiston Respublikasining DV/M 04095/04/22-sonli ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasi, «Mediofarm» MChJ negizida atopik dermatit va allergodermatozlarni davolash uchun innovatsion, dorivor, antiallergik vosita sifatida tibbiy amaliyotda keng qo'llash maqsadida «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktini ishlab chiqarish va sotuvga chiqarish imkonini beradi;

«Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti uchun tibbiyotda foydalanish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomada, atopik dermatit va allergodermatozlarning tashqi terapiyasi uchun preparatni klinik qo'llash uchun ko'rsatmalar mavjud;

«Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti uchun tasdiqlangan korxona farmakopeya maqolasi KFM 42 Uz 15098648-4936-2022. Natijada «Mediofarm» MChJ negizida ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, 2 ta ixtiroga patent olingan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya

etilgan ilmiy jurnallarda 14 ta maqola, shu jumladan, 10 ta maqola respublika va 4 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, adabiyotlar sharhi, asl tadqiqotning to'qqiz bobi, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 bet.

## DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyaati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi «Allergodermatozlar haqida umumiy ma'lumot, farmakoterapiya tamoyillari, ekstraktlar, surtma dori shakllari va dorivor yig'malar texnologiyalari»** adabiyotlarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan, ya'ni allergodermatozlarning patologiyasi, tashqi terapiya tamoyillari, allergodermatozlarni davolash uchun dermatologiyada qo'llaniladigan dorilar va dorivor o'simliklar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, birinchi bobda suyuq, quyuq va quruq ekstraktlarni olish texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot berilgan, surtma dori shakllari va dorivor yig'malari haqida ma'lumot berilgan.

**«Fitoeckzemaderm» suyuq ekstraktining tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish, standartlashtirish va farmako-toksikologik o'rganish» ikkinchi bobida** «Fitoeckzemaderm» fitokompleksining suyuq ekstrakti tarkibi, texnologiyasini ishlab chiqish, sifatni baholash va standartlashtirish bo'yicha tadqiqotlar, shuningdek farmako-toksikologik xususiyatlarni baholash bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan<sup>3</sup>.

Fitokompleks tarkibini ishlab chiqishda aqliy modellash va ranjirovka usulidan foydalanilgan. Ekzemaning tashqi terapiyasining maqsadi antiallergik, yallig'lanishga qarshi (antiekssudativ), qichimaga qarshi ta'sirni ta'minlash, shuningdek, ikkilamchi infeksiyalarni davolash va teridagi morfologik o'zgarishlarni bartaraf etishdir. Aytilganlarga asoslanib, biz fitokompleksning tarkibini ishlab chiqdik: oddiy eman po'sti (Cortex Quercus pedunculata) - 3,0; uch rangli binafsha o'ti (Herba Violae tricolor) - 2,0; oddiy xop konuslari (Fructus Humuli lupuli) - 2,0; tirnoqqul gullari (Flores Calendulae officinalis) - 1,0; gazanda o'ti barglari (Folia Urticae dioicae) - 1,0; qiriq bo'g'im o'ti (Herba Equiseti arvensis) - 1,0; dorivor mavrak barglari (Folia Salviae officinalis) - 1,0. Ushbu fitokompleks asosida 40% etil spirtida 1:7,3 nisbatda suyuq ekstrakt olindi.

Suyuq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqishda takomillashtirilgan maseratziya usuli qo'llanildi, uning mohiyati shundan iboratki, xom ashyo dinamik muvozanatga kelguncha 70% etil spirtida bo'ktiriladi, so'ngra tozalangan suv bilan 40%

<sup>3</sup> Dissertatsiya tadqiqoti davomida laboratoriya bazasi va tajriba maydonlaridan foydalanish imkoniyati uchun «Med Standart» MChJ tadqiqot markazi va «FARMATSIYA-INNOVATSIYA MARKAZI» MChJ innovatsiya markaziga chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz.



etanolgacha suyultirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, tozalangan suv bilan suyultirishda ikkita yondashuv qo'llanilgan: xona haroratida suv bilan suyultirish va issiq suv ( $90-100^{\circ}\text{C}$ ) bilan suyultirish. Tadqiqot natijalariga ko'ra, «Fitoeckzemaderm» suyuq ekstraktining ishlab chiqilgan texnologiyalari ekstraktiv moddalar va quruq qoldiqning ajralishi bo'yicha baholandi va materatsiya va keyingi suyultirish usuli (sovuq usul) istiqbolli sifatida tanlandi, chunki ekstraktiv moddalar va quruq qoldiqlar o'rtasida sezilarli farqlar yo'q edi. Biroq, sovuq usul eng tejankor va yumshoq bo'lib, bu usulni tanlash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik, materatsiya va keyingi suyultirish usuli (sovuq usul) bilan klassik maseratsiya usuli (prototip) biologik faol va ekstraktiv moddalarning ajralishi bo'yicha qiyosiy baholandi. Biologik faol moddalarning ajralishini baholash natijasida ishlab chiqilgan usul va prototip o'rtasida flavonoidlar, efir moylari, oshlovchi moddalar, karotinoidlar va xlorofillar ajralishi bo'yicha sezilarli farqlar yo'qligi aniqlandi. Shu bilan birga, quruq qoldiq, ekstraktiv moddalar va kremniyorganik birikmalari tarkibidagi ishonchli farq qayd etilgan. Bu fakt ishlab chiqilgan usulning klassik usuliga nisbatan istiqbolligini ko'rsatadi, chunki ishlab chiqilgan usul yordamida suyuq ekstraktni olishda balast moddalaridan sezilarli darajada tozalangan va kremniyorganik birikmalarining yuqori tarkibiga ega bo'lgan ekstrakt olinadi.

Suyuq ekstrakt sifatini baholash va standartlashtirish bo'yicha tadqiqotlar davomida fenolik birikmalar, flavonoidlar, efir moylari, oshlovchi moddalar, kremniyorganik birikmalari, karotinoidlar va xlorofillarning tarkibi o'rganildi, og'ir metallar tarkibi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi va normativ hujjatlar (NX) ko'rsatkichlari uchun sifat standartlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sifatni baholash usullari, NX ko'rsatkichlari uchun sifat no'malari ishlab chiqildi va standartlashtirish ham amalga oshirildi, keyinchalik NX loyihasi (korxona farmakopeya maqolasi (KFM)) ishlab chiqildi. «Fitoeckzemaderm» suyuq ekstraktining barqarorligini o'rganish va saqlash muddatini aniqlashda ikkita usul qo'llaniladi: fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va farmakoto-ksikologik parametrlarning o'zgarishi bo'yicha baholash. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha barqarorlikni o'rganish natijalariga ko'ra, ikki yildan keyin og'ishlar kuzatila boshlaganligi, tabiiy saqlashning to'rtinchi yilida ham farmako-toksikologik ko'rsatkichlarda o'zgarishlar kuzatilmasligi aniqlandi! Bu fakt barqarorlikning yangi qonuniyatini va xususiyatini ko'rsatadi. Farmakopeyalarning barqarorlik bo'yicha tavsiyalarini hisobga olgan holda, sinovdan o'tgan preparatning sanoat chiqarish shakli uchun tavsiya etilgan saqlash muddati 3,5 yilga to'g'ri keladi.

O'tkir va nimo'tkir toksikligi umumiy qabul qilingan usul bo'yicha amalga oshirildi. Nimo'tkir toksikligini baholashda umumiy farmakologik faollik bilan ham baholandi, qonning gematologik va biokimyoviy parametrlaridagi o'zgarishlarni, shuningdek ichki organlarni makroskopik tekshirish bilan ham umumiy farmakologik faollik qayd etildi. Nimo'tkir toksikligini baholashda umumiy farmakologik faollikni baholash qonning gematologik va biokimyoviy parametrlaridagi o'zgarishlarni qayd etish, shuningdek, ichki organlarni makroskopik tekshirish bilan ham amalga oshirildi. Mahalliy ta'sirchanligi intakt albinos quyondarida kon'yunktival testi usuli orqali o'rganildi. Allergiya chaqirish xususiyati sensibilizatsiya qilingan hayvonlarda kon'yunktival testi usuli yordamida baholandi. O'tkir toksiklikni o'rganish natijasida preparat yuqori darajada bezararlik ekanligi aniqlandi, chunki



o'rtacha o'ldiradigan doza –  $LD_{50} > 3375$  mg/kg toksiklikning beshinchi sinfiga tegishli (Amalda toksik emas). Nimo'tkir eksperimentda kumulyatsiya va umumiy farmakologik faollikni baholash, amalda kumulyatsiya yo'qligini va preparatning hayotiy organlar va tizimlarga toksik ta'sirining yo'qligini ko'rsatdi. Mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati o'rganish preparatda mahalliy ta'sirchanligi va allergen ta'sirining yo'qligini ko'rsatdi. Antiallergik faollik skipidarni teriga qo'llash natijasida kelib chiqqan allergik kontakt dermatit modeli (1-model) va teriga 2,4-dinitroftorbenzolni qo'llash natijasida kelib chiqqan allergik kontakt dermatit modeli (2-model) yordamida o'rganildi. Antihistamin faolligi gistamin ichak spazmi modeli yordamida baholandi. Yallig'lanishga qarshi (antigistamin) faollikni o'rganish gistamin ta'siridan panja shishi modelida o'tkazildi. «Fitoekzemaderm» suyuq ekstraktining qon formulasi va immunoglobulin E ga ta'siri allergik kontakt dermatit modeli yordamida o'rganildi. Yarani davolash faolligi tekis yara modeli yordamida baholandi. Antiallergik faollikni o'rganish shu narsani ko'rsatdiki, preparatda etalon preparatlari bilan taqqoslanadigan ishonchli antiallergik faollikning mavjudligini, va ba'zi hollarda hatto ulardan yuqori ekanligini ko'rsatdi, chunki sinov preparati allergik teri lezyonlari sharoitida terining tiklanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali doza diapazoni ( $ED_{30}$ ,  $ED_{50}$  va  $ED_{100}$ ) ham aniqlandi va eng samarali doza belgilandi. Antigistamin faolligini o'rganish etalon preparati bilan taqqoslanadigan to'g'ridan-to'g'ri antigistamin faolligi mavjudligini ko'rsatadi. Yallig'lanishga qarshi faollikni o'rganish etalon preparati bilan taqqoslanadigan umumiy yallig'lanishga qarshi faollikning mavjudligini ko'rsatadi. Yarani davolash faolligini o'rganish etalon preparati bilan taqqoslanadigan to'g'ridan-to'g'ri yarani davolovchi ta'sirning mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar sinov preparatining nafaqat antiallergik vosita, balki yarani davolovchi vosita sifatida ham istiqbolini ko'rsatadi. Allergik kontakt dermatit modelida sinov preparatning qon formulasi va immunoglobulin E darajasiga ta'sirini baholash shuni ko'rsatadiki, sinov preparati tizimli ta'sir emas, mahalliy ta'sir ko'rsatadi va allergik dermatit sharoitida qon formulasi va immunoglobulin E darajasiga sezilarli o'zgarish ko'rsatadigan ta'siriga ega emas. Sinov preparatning farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganish natijalariga ko'ra, ta'sir mexanizmi aniqlandi, uning mohiyati to'g'ridan-to'g'ri antigistamin (gistaminni blokirovka qiluvchi) ta'sirga va terining morfologiyasiga tiklovchi ta'sirga ega. «Fitoekzemaderm» suyuq ekstraktining farmako-toksikologik tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlarga asosanib, sinov preparati ekzema va allergik dermatozlarni davolash uchun antiallergik vosita, shuningdek yarani davolovchi vosita sifatida istiqboliga ega degan xulosaga kelish mumkin.

**«Fitoekzemaderm» fitoyig'masining texnologiyasini ishlab chiqish va farmako-toksikologik o'rganish» uchinchi bobida,** «Fitoekzemaderm» fitokompleksi asosida ekzemani sirtqi davolash uchun fitoyig'ma (dorivor yig'ma) ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlari bayon etilgan, shuningdek, dorivor yig'maning o'tkir toksikligi, mahalliy ta'sirchanligi, allergiya chaqirish xususiyati va antiallergik faolligi ko'rsatkichlari bo'yicha farmako-toksikologik baholash.

Dorivor yig'maning texnologiyasini ishlab chiqishda adabiyotlarni ko'rib chiqish, empirik tadqiqotlar va ixtirochilik yondashuvidan foydalanilgan. Natijada, quyidagi texnologiya ishlab chiqildi: yig'maga kiritilgan xom ashyo alohida

maydalanadi: teshik diametri 5 mm bo'lgan elakdan o'tadigan zarracha kattaligiga o'tlar, gullar va barglar uchun; teshik diametri 3 mm bo'lgan elakdan o'tadigan zarracha kattaligiga po'stloq uchun. Chang teshik diametri 0,18 mm bo'lgan elakdan o'tkaziladi. Keyin retseptda ko'rsatilgan xom ashyo miqdori tortiladi (og'irlik nisbatlarida) va bir xil aralashma olinmaguncha aralashtiriladi, qadoqlanadi va jihozlanadi.

O'tkir toksiklik umumiy qabul qilingan metodika yordamida baholandi. Mahalliy ta'sirchanligi intakt albinos quyonlarida kon'yunktival testi usuli orqali o'rganildi. Allergiya chaqirish xususiyati sensibilizatsiya qilingan hayvonlarda kon'yunktival testi usuli yordamida baholandi. Natija shuni ko'rsatdiki, yig'ma yuqori darajada bezararlik ekanligi, chunki o'tacha o'ldiradigan doza –  $LD_{50} > 3000$  mg/kg toksiklikning beshinchi sinfiga tegishli (Amalda toksik emas). Mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati o'rganish yig'mada mahalliy ta'sirchanligi va allergen ta'sirining yo'qligini ko'rsatdi. Antiallergik faollik skipidarni teriga qo'llash natijasida kelib chiqqan kontakt-allergik dermatit modelida o'rganildi. Antiallergik faollikni baholash natijalari yig'mada etalon preparatlari bilan taqqoslanadigan ishonchli antiallergik faollik mavjudligini ko'rsatdi. «Fitoekzemaderm» dorivor yig'masining farmako-toksikologik tadqiqotlaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, yig'ma ekzema va allergodermatozlarni davolash uchun antiallergik vosita sifatida istiqbolga ega degan xulosaga kelish mumkin.

**To'rtinchi bobda «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining ta'sir qilish mexanizmini, qo'llash doirasini kengaytirishni, barqarorligini o'rganish»** ilgari ishlab chiqilgan «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining yakuniy tadqiqotlari (ushbu preparatni ishlab chiqish PhD dissertatsiyasi doirasida bo'lgan) antigistamin, yallig'lanishga qarshi va yarani davolash faollik ko'rsatkichlari bo'yicha taqdim etilgan, shuningdek, ta'sir qilish mexanizmini aniqlash uchun «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining qon formulasi va immunoglobulin E parametrlariga ta'siri o'rganildi. «Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti quyidagi tarkibga ega: uch rangli binafsha erusti qismi (Herba *Violae tricoloris*) – 3,0; oddy hop conuslari (*Fructus Humuli lupuli*) – 2,0; qizilmiya ildizi (*Radices Glycyrrhizae glabrae*) – 2,0; dorixona moychechagi gullari (*Flores Chamomillae recutitae*) – 1,0; gazanda o'ti barglari (*Folia Urticae dioicae*) – 1,0; tirnogul gullari (*Flores Calendulae officinalis*) – 1,0; qiriq bo'g'im erustki qismi (*Herba Equiseti arvensis*) – 1,0; 40% etanol – 1:6,8 nisbatda suyuq ekstrakt olish uchun yetarli miqdorda.

Shuningdek, barqarorlikni o'rganishni yakunlash natijalari, shuningdek, amaliyotga to'liq joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan klinik tadqiqotlar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar taqdim etilgan. Shu bilan birga, PhD dissertatsiyasi doirasida quyidagi tarkibga ega bo'lgan «Fitoallergoderm» fitokompleksi ishlab chiqildi: uch rangli binafsha erusti qismi (*Herba Violae tricoloris*) – 3,0; oddy hop conuslari (*Fructus Humuli lupuli*) – 2,0; qizilmiya ildizi (*Radices Glycyrrhizae glabrae*) – 2,0; dorixona moychechagi gullari (*Flores Chamomillae recutitae*) – 1,0; gazanda o'ti barglari (*Folia Urticae dioicae*) – 1,0; tirnogul gullari (*Flores Calendulae officinalis*) – 1,0; qiriq bo'g'im erusti qismi (*Herba Equiseti arvensis*) – 1,0. Ilgari, PhD dissertatsiyasi doirasida «Fitoallergoderm» preparatining suyuq ekstraktining o'tkir zaharliliigi, nimo'tkir toksikligi, surunkali toksikligi, mahalliy ta'sirchanligi, allergiya chaqirish xususiyati, shuningdek, antiallergik faolligi

ko'rsatkichlari bo'yicha klinik oldi tadqiqotlar (farmako-toksikologik tadqiqotlar) o'tkazildi. O'tkir toksiklikni o'rganish natijasida preparat yuqori darajada bezararlik ekanligi aniqlandi, chunki u beshinchi toksiklik sinfiga tegishli (Amalda toksik emas) bo'lganligi uchun. Mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati o'rganish preparatda mahalliy ta'sirchanligi va allergiya chaqirish xususiyati yo'qligini ko'rsatdi. Nimo'tkir va surunkali tajribalarda kumulyatsiya va umumiy farmakologik faollikni baholash, amalda kumulyatsiya yo'qligini va preparatning hayotiy organlar va tizimlarga toksik ta'sirining yo'qligini ko'rsatdi. Allergik kontakt dermatit modellarida antiallergik faollikni o'rganish shuni ko'rsatdiki, sinov preparat etalon preparatlar bilan taqqoslanadigan ishonchli antiallergik faollikka ega va ba'zi hollarda hatto yuqori antiallergik faollikka ega, chunki sinov preparat terining allergik lezyonlari sharoitida terining tiklanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali dozalar diapazoni ( $ED_{30}$ ,  $ED_{50}$  va  $ED_{100}$ ) ham aniqlandi va eng samarali doza topildi. PhD dissertatsiyasi doirasida sifatni baholash usullari ishlab chiqilgan va «Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti standartlashtirilgan, korxona farmakopeya maqolasi loyahasini (KFM) tayyorlagan. Tabiiy saqlash sharoitida barqarorlik ham o'rganilgan, barqarorlikni baholash fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning KFM loyihasi normasidan chetga chiqishi asosida amalga oshirilgan. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, suyuq ekstrakt 2 yil davomida barqarorligini saqlab turishi aniqlandi.

Ushbu ish doirasida (DSc dissertatsiyasi) gistamin ichak spazmi modeli bo'yicha antigistamin faolligini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Shuningdek, gistamin panjasi shishi modelida yallig'lanishga qarshi (antigistamin) faolligini o'rganish o'tkazildi. Allergik kontakt dermatit modelida «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining qon formulasiga va immunoglobulin E-ga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqot o'tkazildi. Yarani davolash faolligi tekis yaraning modelida baholandi. Antigistamin faolligini o'rganish natijalari etalon preparatiga taqqoslanadigan to'g'ridan-to'g'ri antigistamin faolligi mavjudligini ko'rsatdi. Yallig'lanishga qarshi faollikni o'rganish etalon preparati bilan taqqoslanadigan preparatda umumiy yallig'lanishga qarshi faollik mavjudligini ko'rsatdi. Yarani davolovchi faollikni o'rganish preparatda to'g'ridan-to'g'ri yarani davolovchi ta'sir mavjudligini ko'rsatdi, va bu faollik etalon preparatidan ustunligi ham. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar sinov preparatining nafaqat antiallergik vosita, balki yarani davolovchi vosita sifatida ham istiqbolini ko'rsatadi. Allergik kontakt dermatit modelida sinov preparatning qon formulasi va immunoglobulin E darajasiga ta'sirini baholash shuni ko'rsatadiki, sinov preparat tizimli ta'sir emas, mahalliy ta'sir ko'rsatadi va allergik dermatit sharoitida qon formulasi va immunoglobulin E darajasiga sezilarli o'zgarish ko'rsatadigan ta'siriga ega emas. Sinov preparatning farmako-toksikologik xususiyatlarini o'rganish natijalariga ko'ra, ta'sir mexanizmi aniqlandi, uning mohiyati to'g'ridan-to'g'ri antigistamin (gistaminni blokirovka qiluvchi) ta'siriga va terining morfologiyasiga tiklovchi ta'siriga ega. «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining farmako-toksikologik tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib, sinov preparati atopik dermatit va allergik dermatozlarni davolash uchun antiallergik vosita, shuningdek yarani davolovchi vosita sifatida istiqboliga ega degan xulosaga kelish mumkin.

«Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining barqarorligini o'rganish va saqlash muddatini aniqlashda ikkita usul qo'llaniladi: fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va farmakoto-ksikologik parametrlarning o'zgarishi bo'yicha baholash. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha barqarorlikni o'rganish natijalariga ko'ra, ikki yildan so'ng og'ishlar kuzatila boshlagani, ammo 5,5 yil tabiiy saqlashdan keyin ham farmako-toksikologik ko'rsatkichlarda esa o'zgarishlar kuzatilmaslari aniqlandi! Bu fakt barqarorlikning yangi qonuniyatini va xususiyatini ko'rsatadi. Farmakopeyalarning barqarorlik bo'yicha tavsiyalarini hisobga olgan holda, sinovdan o'tgan preparatning sanoat chiqarish shakli uchun tavsiya etilgan saqlash muddati 5 yilga to'g'ri keladi.

Toshkent viloyati teri-tanosil kasalliklari dispanserida «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining klinik sinovlari o'tkazildi. Klinik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibiga quyidagilar kirdi: muassasa rahbari – bosh shifokor vazifasini bajaruvchi Sh.X.Maxmudov, klinik tadqiqotlar raxbari t.f.n. N.S.Saipova, shifokor-tadqiqotchi I.N. Abduvaxitova.

Ushbu klinik tadqiqotda «Mediofarm» OAJ tomonidan ishlab chiqarilgan «Fitoallergoderm» suyuq ekstraktining samaradorligi va organizm tomonidan o'zlashtira olishligini o'rganish uchun qiyosan referent preparati «Psilo-Balzam» sirtqi qo'llash uchun gel 1%, 20 g (tubalar) («Nijfarm» OAJ Rossiya) bilan o'tkazilgan. Allergik dermatit tashxisi bilan og'rigan 40 nafar bemor ishtirok etdi, ular jinsi, yoshi va kasallikning klinik kechish xususiyatlari bo'yicha taqqoslangan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagilarni aytish mumkin: 1. «Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti antiallergik va qichimaga qarshi ta'sirga ega va bemorlar tomonidan yaxshi o'zlashtira olinadi. 2. Samaradorlik va o'zlashtira olishligi bo'yicha «Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti «Psilo-Balzam» qiyosiy preparati bilan taqqoslanadi va nojo'ya reaksiyalarni keltirib chiqarmaydi. 3. «Fitoallergoderm» suyuq ekstrakti samarali antiallergik va qichimaga qarshi preparati sifatida O'zbekiston Respublikasida keng klinik foydalanish va ro'yxatdan o'tkazish uchun tavsiya etilishi mumkin.

